

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA CHEVARCHILIKKA DOIR TERMINLARNING TARJIMASI EKVIVALENTLARI

Mirzayeva Gulasal Ergashovna, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ЭКВИВАЛЕНТЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С НАВЫКАМИ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Мирзаева Гуласал Эргашовна, старший преподаватель кафедры “Иностранный язык и литература” Деновского института предпринимательства и педагогики

TRANSLATION EQUIVALENTS OF SKILL-RELATED TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Mirzayeva Gulasal Ergashovna, senior lecturer of the Department of “Foreign Language and Literature” of the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Annotatsiya: Ushbu maqolada chevarchilikka oid inglizcha va o'zbekcha terminlarning tarjimasi, ularning ekvivalentlari hamda qo'llanilish holatlari tahlil qilingan. Bugungi global iqtisodiy muhitda chevarchilik sohasi xalqaro hamkorlikning muhim qismiga aylangan. Ingliz tilidagi texnik atamalarni o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilishda uchrayotgan muammolar va ularning ilmiy-texnik jamoatchilikka ta'siri o'rGANildi. Ushbu tahlillar natijasida tarjima usullarini takomillashtirish va yangi atamalarni kiritish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: chevarchilik, terminologiya, tarjima, ekvivalent, ingliz tili, o'zbek tili.

Abstract: This article analyzes the translation of English and Uzbek terms related to tailoring, their equivalents, and usage cases. In today's global economic environment, the tailoring industry has become an important part of international cooperation. Challenges in accurately translating technical terms from English to Uzbek and their impact on the scientific and technical community are examined. Based on the analysis, recommendations are provided to improve translation methods and introduce new terms.

Key words: tailoring, terminology, translation, equivalent, English language, Uzbek language.

Аннотация: В данной статье проанализированы перевод английских и узбекских терминов, относящихся к швейному делу, их эквиваленты и случаи применения. В современном глобальном экономическом окружении швейная индустрия стала важной частью международного сотрудничества. Рассмотрены проблемы, возникающие при переводе технических терминов с английского на узбекский, и их влияние на научно-техническое сообщество. По результатам анализа представлены рекомендации по совершенствованию методов перевода и введению новых терминов.

Ключевые слова: швейное дело, терминология, перевод, эквивалент, английский язык, узбекский язык.



<https://orcid.org/0009-0005-6300-5196>
e-mail:
mirzaevagulasal3@gmail.com

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Uzoq tarixga ega bo‘lgan chevarchilik (sewing, tailoring) endi ijodiy va sanoat dizaynining muhim tarkibiy qismidir. Global miqyosda kengayib borayotgan ushbu sohada tillar orasidagi texnik jarayon so‘zlarini aniq tarjima qilish zarur. Ko‘p ishlatiladigan inglizcha so‘zlarining to‘g‘ri o‘zbekcha tarjimasini topish turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, ba’zi tushunchalar o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi yoki tarjima qilinganida ham tarjima ma’noni to‘g‘ri beradimi, degan savollar tug‘iladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS).

Tadqiqotda quyidagi texnikalar qo‘llanildi: *Leksik-semantik talqin*. O‘zbek va ingliz chevarlik so‘zlarining ma’nosini, tuzilishi va mazmunini o‘rganish uchun leksik-semantik tahlildan foydalanildi. Uni o‘rganish uchun atamalar uchta ma’no turkumiga bo‘linadi. Masalan: bunga misollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lgan bir nechta atamalarni o‘z ichiga oladi. Ayrim ingliz atamalari uchun mos va aniq o‘zbekcha tarjimalar mavjud. Ko‘pincha ishlatiladigan atamalar bilan bu odatda shunday bo‘ladi. Masalan: Fabric – “Mato”, Needle – “Igna”, hamda Thread – “Ip” deb tarjima qilinadi. Bu atamalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi va lug‘at ta’riflari va qo‘llanishiga mos kelishi tufayli o‘zbek tiliga tarjima qilish nisbatan oson. Bundan tashqari, ba’zi atamalar boshqalarga qaraganda kamroq mos keladi. Ular har doim ham to‘liq semantik ekvivalentlikni taklif qilmasa ham, o‘zbek tilida ma’lum darajada mos ekvivalentlarga ega. Bunga quyidagi so‘zlarini misol qilib keltirish mumkin: Pattern – “Andaza” (Odatda, “andaza” o‘lchov va chizma ma’nosini ifodalaydi, lekin ba’zan “shablon” so‘zi bilan chalkashib ketadi) [4].

Seam – “Tikuv” yoki “Tig” (Tikuv texnologiyasida bu so‘zning turli xil kontekstlarda turli ma’nolari bor).

Dart – “Burma” (Bu atama to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi, lekin ayrim hollarda dizayn nuqtayi nazaridan noto‘g‘ri tushunilishi mumkin).

Yana shunday terminlardan biri, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmagan terminlardir. Ba’zi inglizcha terminlar o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos ekvivalentga ega emas. Bu

holatda, yangi atamalarni yaratish yoki xalqaro terminlarni o‘zlashtirish zarurati tug‘iladi. Masalan:

Seam allowance – “Tikuv zahirasi” (Bu atama o‘zbek tilida keng tarqalgan emas, lekin xalqaro amaliyotda juda muhimdir).

Bias tape – “Yon chiziq uchun lenta” (Tarjima to‘g‘ri semantik ma’noni bera olmasligi mumkin.) Grainline – “Mato tolasi yo‘nalishi” (Bu termin ko‘proq texnik matnlarda uchraydi va oddiy foydalanuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin) [2].

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

O‘zbek tilidagi tarjimalar uzun va murakkab tushuntirishni talab qiladi (ya’ni, bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi), inglizcha atamalar ko‘pincha qisqa va keng ma’noga ega. Masalan: “Grainline” – o‘zbekchada “Mato tolalarining asosiy yo‘nalishi” tarzida kengaytirilgan holda tushuntiriladi. Uni bitta so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Ayrim hollarda tarjima jarayonida ma’no yo‘qoladi yoki noto‘g‘ri tushuniladi. Misol uchun, “Stay stitch” atamasi ba’zi joylarda “Mustahkamlovchi tig” deb ham tarjima qilinadi, bu esa texnik ma’noda noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin [1].

O‘zbek tilida chevarchilik so‘zlarining qabul qilinishi va qo‘llanilishi natijasida amaliyotda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Xalqaro tilga kelsak, chevarlar va dizaynerlar o‘rtasida noto‘g‘ri tushunchalar mavjud. Masalan, “naqsh” va “shablon” iboralarini chalkashirib yuborish natijasida matolarni kesishda xatolar qayd etilgan. Texnik nashrlarda turli terminologiyadan foydalanilganda jarayonlar murakkablashadi. Misol tariqasida shuni ko‘rsatish mumkin, “notch” (matodagi belgi) so‘zi bir necha xil atamalar bilan ifodalanadi: “belgi”, “kesma”, “chek va boshqalar. Ingliz tili terminologiyasi uchun texnik lug‘atni standartlashtirish maqsadga muvofiq bo‘lib, qisqa o‘zbekcha o‘xshashlari yaratilishi kerak. Biroq, amaliy pragmatik yondashuvdan ham foydalanish mumkin. Tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuvdan qochish, atamalarning texnik va madaniy kontekstdagi ma’nolarini hisobga olishni talab qiladi. Ya’ni, kontekstga qarab, so‘z tarjima qilinishi mumkin. Ularning xalqaro miqyosda qo‘llanishi tufayli ba’zi bir murakkab atamalar o‘zbek tilida qolishi kerak. (masalan, “bias tape”

yoki “seam allowance”). Shu tariqa o‘z ma’nosini ham saqlab qolishi mumkin [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Ushbu tadqiqot davomida chevarchilikka oid atamalarni ingliz va o‘zbek tillariga tarjima qilish va qo‘llashdagi nomuvofiqliklar, muammolar va ularning amaliy oqibatlari ko‘rib chiqildi. Asosiy topilmalar quyidagilar edi:

1. Mos kelmaydigan terminologiyaning mavjudligi. Chevarchilikka oid ko‘plab inglizcha atamalar mavjud bo‘lib, ularning o‘zbekcha ekvivalenti yo‘q. Mana buning amaldagi yana bir misoli. “Seam allowance” – “Tikuv zapisasi” yoki “Tikuv cheti” sifatida tarjima qilinadi, lekin ushbu atamalar texnik jihatdan to‘liq bir xil ma’noni ifodalamaydi. Bu, ayniqsa, kesim jarayonida noto‘g‘ri o‘lchovlar va xatoliklarga olib keladi. “Bias tape” (yon chiziq uchun lenta) kabi atamalar amaliyotda tushunarsiz yoki noto‘g‘ri tarjimalar bilan qo‘llaniladi. Chevarlar bu o‘zbekcha iborani deyarli tushunmaydilar. Xalqaro hujjalarning noto‘g‘ri talqin qilinadi, chunki Chevarlar o‘zarlo “tikuv cheti” so‘zini ishlatalardilar. Shu sababli, texnik protseduralar noaniq, bu esa dizaynerlar o‘rtasida noto‘g‘ri aloqalarga olib keladi [5].

2. Tarjima texnikasining xilma-xilligi.

Tarjima jarayonida so‘zma-so‘z yondashuv va alohida tushuntirish usullari qo‘llaniladi. Bu ba’zi terminologiyani noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. Masalan: “Notch” (matodagi belgi) atamasi ba’zan “belgi”, ba’zan esa “cheek” deb tarjima qilinadi. Bu terminologik barqarorlikni yo‘qotadi.

“Stay stitch” (mustahkamlovchi tig‘) noto‘g‘ri kontekstda ishlatalishi mumkin, chunki amaliyotda chevarlar buni faqat muayyan vaziyatda ishlatalishga odatlangan.

“Dart” (burma) so‘zi tez-tez noto‘g‘ri ishlataladi, bu esa mato dizaynidagi xatolarga olib keladi. “Grainline” (mato tolasi yo‘nalishi) iborasi o‘zining murakkabligi tufayli ba’zan e’tibordan chetda qoladi yoki tushuntirilmaydi.

4. Chevarlarning terminologik tayyorgarligi yomon.

So‘rov natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik chevarlar chet el lug‘atlaridan foydalanishni qiyin deb bilishadi. Chevarlar xorijiy so‘zlardan foydalanishni murakkab jarayon sifatida ko‘rishadi va haqiqiy faoliyatda mahalliy atamalarni afzal ko‘rishadi.

Masalan: “Andaza” so‘zi mahalliy tajribada ko‘proq ishlataladi, lekin “pattern” so‘ziga nisbatan torroq ma’noga ega [6].

5. Terminologiyadagi nomuvofiqliklar.

Xuddi shu ibora texnik matnlarda turli xil usullarda qo‘llaniladi. Shu sababli, matnlarni tushunish qiyin. Misol uchun, “edge stitch” ba’zi hujjalarda “chok qirrasi” va boshqalarida “chekka tikuv” deb tarjima qilinadi.

“Hemline” xalqaro standartlarda qo‘llaniladigan atama bo‘lsa, o‘zbek amaliyotida “pastki chekka” deb noto‘g‘ri talqin qilinadi.

6. Til va madaniyatning tarjimaga ta’siri.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik va madaniy farqlar tarjima jarayonida muhim ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek terminologiyasi ko‘pincha qisqa va aniq bo‘lgan ingliz atamalariga qaraganda uzunroq va tavsifliroqdir. Natijada chevarlar qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu natijalar asosida xalqaro terminlarni moslashtirish, amaliyotda yagona standartlarni joriy qilish va terminologiyani oddiylashtirish muhimligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ergashovna M.G., Narzulloyeva O.S. Analysis of Terms for Sewing in English and Uzbek. - Web of Synergy: International Interdisciplinary. 2023.
2. Ergashovna M.G., Xoliquulova B.M. Tikuvchilikka oid terminlarning sinonmlarini tahlil qilish. – Toshkent: Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2023.
3. Khalikov A. Chevarchilikka oid terminlar tarjimasi. – Toshkent. 2024. – 132 b.
4. Oxford English Dictionary – Tailoring Terminology. – 2018.
5. Madalov,N.E. (2020). Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. ISJ Theoretical & Applied Science, 10(90), 417-421.
6. Madalov,N.E. (2019). Types of transformations in the process of translation. In Наука и инновации-современные концепции (pp. 111-115).
7. Madalov, N. E., & Abduvaitov,A.S. (2019). Euphemisms in English and their Russian equivalents. In Наука и инновации-современные концепции (pp. 59-61).